



PEDAGOGIK JAMOADAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLAR

Yusupova Z. Z.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: konflikt, xulosa, misollar, shaxs, inson, jamoadagi muammolar, hayot sikli.

Ключевые слова: конфликт, заключение, примеры, личность, человек, проблемы в коллективе, жизненный цикл.

Key words: conflict, conclusion, examples, personality, person, problems in the team, life cycle.

Kirish. Nizo esa munosabatlar buzilishiga olib keladi. Lekin biz bu nizolarni oldini olish borasidagi bilimlarni konfliktologiya fani orqali bilib olamiz. Nizolar insonlar bir - birini tushunmaslik oqibatida yuzaga keladi. Birinchi navbatda konflikt atamasiga izoh berib o'tsak, "konflikt" so'zi "nizo", "to'qnashuv" degan ma'noni anglatadi. Buni ilmiy asosda konfliktologiya fani o'rganadi. Konfliktologiya fani to'qnashuv haqida ta'lim berish, ya'ni to'qnashuv haqidagi fan hisoblanadi. Konfliktologiya bu- nizolarni boshlanishi, jiddiy ziddiyatlarga olib kelishi, rivojlanishi va tugashi haqidagi bilimlarni o'rganishimizda yaqindan yordam beradi.

Bu fanning asosiy maqsadi va vazifasi nizolarni oldini olish, jamiyatdagi nizolarni kelib chiqish omillarini o'rganish, hal qilish, shunday nizolar kelib chiqishida kurashishning samarali usullarini o'rganishadan iborat. Konfliktlarsiz hayotimizni tasavvur eta olmaymiz. Konfliktlar bizning hayot tarzimizda juda ko'p hollarda insonlar munosabatida ob'ektiv va subektiv omillar ham saba bo'lishi mumkin.

Chunki nizolar kutilmagan holatda kutilmagan vaziyatda yuzaga keladi va inson hayot tarzida tub burilish yasamay qolmaydi. Konfliktlarni keltirib chiqaruvchi omillarni 5ta asosiy guruhga bo'lib chiqamiz.

1. Informatsion axborot omillari.

2. Jamiyat miqiyosidagi ayrim tizimlarning faoliyatiga bog'liq bo'lgan omillar


3. Qadriyatlarga aloqador omillar
4. Munosabatdagi omillar
5. Xulq atvor bilan bog'liq.

Shaxslararo munosabatlar insoniyat hayot faoliyatining zarur sharti bo'lib, shaxsning etuk inson sifatida shakllanishida, uning psixik funksiyalari, jarayonlari, psixik xususiyatlar rivojlanishidagi ahamiyati beqiyosdir. Ayniqsa, bolaning psixik taraqqiyotida uning tengdoshlari bilan o'zaro munosabati va muloqotining ta'sirini hech narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydi.

Materiallar va metodlar. Bo'lalilik davrida tengdoshlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning muhimligini amerikalik mashhur bolalar vrachi Benjamin Spok ham ko'rsatib bergan. Uning fikricha, katta yoshdagi kishining oilada, ishda hamkorlik qila olishi boshqalar bilan qanchalik chiqishib ketishi, shu kishining bolalik chog'ida tengqurlari, boshqa bolalar bilan qanchalik hamkorlik qilgani, chiqishib o'ynaganiga bog'liq.

Bolada atrof-dagilar, kattalar va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarga kuchli ehtiyoj mavjud bo'lib, bu munosabatlar yordamida bola muhim hayotiy tajribaga ega bo'ladi, atrof-olam, voqelik, jamiyat haqida bilim to'playdi, o'zini tengdoshlari bilan taqqoslash natijasida o'ziga va boshqalarga baho berishga o'rganadi. Tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlarda bola o'zining psixik qiyofasini guyoki «ko'zgu»da aks ettiradi, o'zaro munosabatlarda bola jamoada yashashga o'rganadi.

Konfliktlarning oldini olish, uni rivojlanishning turli bosqichlarida oldini olishning turli imkoniyatlarini va ishtirokchilarning darajasi va tarkibidan qat'iy nazar nizolarni hal qilish, konfliktlarga qarshi kurashning samarali usullarini o'rganishdan iborat. Hayot konfliktlarga juda boy, insonning jamiyatda yashash tarzini turli ziddiyatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Turli nizo va ziddiyatlar bilan umr davomida, har qanday yoshda, har qanday joyda, har qanday vaziyatda to'qnash kelishi mumkin. Hech bir inson o'zini konfliktlardan



1-Rasm Pedagogik shaxslararo munosabatni shakllantirish



doimiy muhofaza qilingan deb hisoblay olmaydi. Ulg'ayganimiz sari konfliktli voqea, hodisalar o'z kuchi va ta'sirini ham kuchaytirib boradi. Ammo biz konflikt nimaligini bilamizmi?!

Har doim ham konfliktli vaziyatga tushib qolganda, o'zimizni to'g'ri tutamizmi?

Konflikt bizning hayotimiz uchun tahdid ko'rsatadimi?

Konfliktning o'z ichki tabiati qanday?


Konfliktdan qanday qutilish, ya'ni undan qanday chiqib ketish kerak? Ziddiyat qanday qonuniyatlar asosida rivojlanadi?

Nizoni rivojlantiruvchi omillarni oldindan bartaraf etsa bo'ladimi? Inson ziddiyatlarsiz yashashga o'rganishi mumkinmi?! - singari savollar butun bir vujudimizni qurshab oladi.

Pedagogik konfliktlar psixologiyasiga qiziqish quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga keladi.

• Ijtimoiy -iqtisodiy va siyosiy sharoitlar, ya'ni ko'pchilik aholining turmush darajasini pasayishi;

- Ijtimoiy sohadagi qattiq raqobat (biznes, ishlab chiqarish aloqalari);
- Qadriyatlar va qadriyatlar tizimining zaiflashishi va yo'nalishlarning o'zgarishi;
- Huquqbuzarliklarning ko'payishi ;
- Ta'lim muassasalarida shaxslararo munosabatlarning keskinligi;
- Avtoritar maktabni boshqarish;
- Ko'p oilalarda nevrotik aloqa uslubi mavzudligi kabilar.



2-Rasm Shaxslararo munosabatning kommunikativ tizimlari

Konfliktologiya yoki konfliktlar yechimi sohasi yangi rivojlanib kelayotgan va taraqqiy etayotgan fan sohalaridan biridir. Shu bois konfliktologiya sohasining nazariy asoslari, uning milliy xususiyatlari, ijtimoiy o'ziga xosligi, konfliktlarning jamiyat hayoti bilan aloqadorligi, shaxslararo konfliktlar, konfliktlarning huquqiy aspektlari, mehnat jamoasidagi konfliktlar masalalari ko'pchilik tadqiqotchilami qiziqtiradi. Ko'rinib turibdiki, konfliktologiyaning o'z ichki yo'nalishlari ko'p. Konfliktologik



kayfiyat va xususiyatlarni o'rganish jamiyatdagi inqirozlarining kelib chiqishi va ijtimoiy to'qnashuvlarning oldini olishga ko'mak beradi. Ammo bu sohadagi tadqiqotlar unchalik ko'p bo'lmay, mazkur qo'llanmani tayyorlashda konfliktologiya asoslari bo'yicha ingliz, rus va o'zbek tillaridagi ma'lum manbalarga tayanildi. AQShning bir necha universitetlari qoshida konflikt yechimlarini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqot markazlari faoliyat olib boradi. Mayamida tashkil etilgan "Tinchlik ta'limi tadqiqotlari Markazi" ana shunday tashkilotlardan hisoblanadi. Rossiya Fanlar Akademiyasi Sotsiologiya instituti qoshida ham "Konfliktologigik Tadqiqotlar markazi" ish olib boradi.

Natijalar va takliflar. Konfliktning yechimini topish - konfliktli vaziyatni yo'qotish hamda u yuzaga keltirgan munosabatlarni to'g'ri yo'lga solish bilim va ko'nikmalari majmuida iborat. Konflikt tabiiy hodisa. Konflikt - oddiy hol. Chunki konflikt har birimizning turmushimiz va tirikligimizga xos va hayotimizga tegishli bo'lgan narsa.

Ammo ko'pchilik insonlar ongida an'anaviy mavjud bo'lgan fikrga ko'ra, konflikt – bu oddiy hol emas, u ziddiyatli hol, undan o'zini muhofaza qilish kerak, undan o'zini tortish zarur, konfliktdan "qochish" kerak. Insonlararo, oilalar ichida bo'layotgan konfliktlardan o'zini tortishni bizga bolaligimizdan o'rgatib kelishadi.

Konflikt oldida, konfliktdan qo'rqish hollari ko'pchilikni tashkil qiladi. Bizni bolaligimizdan konfliktli vaziyatlardan o'zimizni tortishga, "janjalkash" bo'lmaslikka, nizolarni keltirib chiqargan va unda qatnashgan odamlardan o'zimizni tortib yurishga o'rgatishadi. Konflikt - bizning milliy mentalitetimizda "yaxshi" bo'lmagan holat va vaziyatga tenglashtiriladi. Biz konflikt bo'lganidan ko'ra, konflikt bo'lmaganini afzalroq ko'ramiz. Konfliktni hayotimizdagi eng «yomon» davr sifatida baholaymiz.

Undan uzoqroqda yashash ko'nikmalari bizning tafakkurimizga chuqur singdiriladi.

Konflikt har kunlik hayot tarzimizga xos bo'lgan voqelik bo'lishiga qaramay, insonlar ko'pincha ularni no'to'g'ri talqin etadi hamda "anglangan" holda qabul qilishga o'rgatilmaydi. Biz qachonki konfliktli vaziyatga tushib qolganimizdagina konfliktli vaziyatni tahlil qilishga urinamiz. Ammo har doim ham bizdagi bilim va ko'nikmalar konfliktli vaziyatdan chiqib ketish uchun yetarli bo'lmaydi, chunki bu borada bizning hayotiy tajribamiz kam va biz konfliktlar yechimi bo'yicha maxsus bilimlarni egallamaganmiz. Tabiiyki, har bir inson konfliktlarni tushunadi, ularning mohiyatini to'g'ri anglaydi hamda ularni yenga oladi, deyish xato. Xorij mamlakatlarida yuqori va quyi bosqichdagi



barcha rahbar xodimlar, biznes menejerlarning barchasi konfliktlar yechimi bo'yicha ta'lim oladilar. Pedagogik ziddiyat bu shaxsning yoki individual rivojlanishning mavjud darajasi va o'quv jarayonining real holatlarining nomutanosibliги natijasida yuzaga kelgan obyektiv qarama - qarshilik, bu ishtirokchilari uchun noyob ta'lim potensiali bo'lib, uni yechishda o'qituvchi va o'quvchining yuqori darajadagi bilim darajasi talab etiladi. O'qituvchi o'quvchi bilan o'zaro aloqada bo'lib, o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan va yaratadigan holatlarni u o'quv faoliyatining qat'iy va ilmiy asoslangan tuzilishida o'quv jarayonining ishtirokchilari bunday holatlarda ko'pincha ular, pedagogik konfliktga duch kelishadi. Potensial ziddiyatli pedagogik vaziyatlar o'quv faoliyati, o'quvchi va o'qituvchi xatti-harakatlar bilan tegishli vaziyatlar, turli o'quv va pedagogik faoliyat holatlari, o'quv faoliyati jarayonlarida va muayyan vazifalarni bajarish yoki bajarishni rad etish bilan bog'liq bo'lgan holatlarda yuzaga keladi.

Inson hayot tarzida konfliktologik vaziyatlarga to'la, lekin biz bunday vaziyatlarda to'g'ri ish tutishimiz, vaziyatni to'g'ri nazorat qila olishimiz kerak. Zero, nizoli vaziyatlar vaqt o'tib barham topadi.

Lekin oradagi munosabatlarning buzilganidan keyin qayta tiklay olish juda qiyin masala hisoblanadi. Shuni ham aytib o'tish joizki, nizolarning kelib chiqishining asl sababi ilmsizlik, dinni bilmaslik, bilimsizlik va eng asosiysi tarbiyasizlik oqibatida yuzaga keladi. Konflikt insonlarni qandaydir bir tomondan o'z-ozini nazorat qila olmaslik yoki o'z-o'zini tahlil qilmaslik natijasida ham paydo bo'lishi mumkin Chunki hozirgi zamonda ziddiyatli vaziyatlarning ko'payib ketishi ham har bir insonning tarbiyasiga va uning dunyoqarashiga ham bog'liq bo'lmoqda. Bundan tashqari hozirgi kunda shaxslar or munosabatlarda nizolarning kelib chiqishiga tashqi omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatib turibdi. Konfliktlarni yuzaga keltirmaslik uchun har bir shaxsda shu konfliktologik madaniyatni shakllantirishimiz kerak.

Konfliktologik madaniyatli shaxs har qanday nizoli vaziyatlarni to'g'ri qabul qiladi va unga to'g'ri yondashadi. Buning natijasida esa nizoli vaziyatlarda eng maqbul yechimlar topiladi va hech kimga yoki hech qanday muhitga ziddiyat o'zining salbiy ta'sirini o'tkaza olmaydi. Insonlar har doim o'z ayblarini tan olishmaydi va aybdorni atrofdan izlashadi. Shuning oqibatida nizo va ziddiyatlar kelib chiqadi.

Munosabatlarni buzilishi oxir-oqibat yonom oqibatlarga olib keladi. Bizni burchimiz esa oxiri bunday yakun topishiga olib bormasligimiz, vaziyatni o'z vaqtida qo'lga olishimiz va bartaraf etishimiz lozim.

Shaxslararo munosabatlar

- bular ob'ektiv ravishda tajribali, turli darajada odamlar o'rtasidagi idrok etilgan munosabatlardir. Ular o'zaro ta'sir qiluvchi kishilarning turli emotsional holatlari va ularning psixologik xususiyatlariga asoslanadi. Ish munosabatlaridan farqli o'laroq, shaxslararo munosabatlar ba'zan ekspressiv hissiy deb ataladi.

Shaxslararo munosabatlarning rivojlanishi jins, yosh, millat va boshqa ko'plab omillar bilan belgilanadi. V shaxslararo muloqot ayollar o'zlarini oshkor qilish (o'zlari haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni boshqalarga o'tkazish zarurligini his qilishadi. Ular ko'pincha yolg'izlikdan shikoyat qiladilar (I. S. Kon). Ayollar uchun shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'ladigan xususiyatlar ko'proq ahamiyatga ega, erkaklar uchun esa - ishbilarmonlik fazilatlarini. Turli milliy jamoalarda shaxslararo munosabatlar insonning jamiyatdagi mavqei, jinsi va yoshi, turli ijtimoiy qatlamlarga mansubligi va boshqalarni hisobga olgan holda quriladi.

Shaxslararo munosabatlarning rivojlanish jarayoni dinamikani shaxslararo munosabatlarni tartibga solish mexanizmini va ularni rivojlantirish shartlarini o'z ichiga oladi. Shaxslararo munosabatlar dinamikada rivojlanadi: ular tug'iladi, mustahkamlanadi, ma'lum bir etuklikka erishadi shundan so'ng ular asta-sekin zaiflashishi mumkin.

Shaxslararo munosabatlarning rivojlanish dinamikasibir necha bosqichlardan o'tadi: tanishuv do'stona, o'rtoqlik va do'stona munosabatlar. Tanishuvlar jamiyatning ijtimoiy-madaniy normalariga qarab amalga oshiriladi. Do'stona munosabatlar shaxslararo munosabatlarni yanada rivojlantirishga tayyorlikni shakllantiradi. O'rtoqlik munosabatlari bosqichida qarashlarning yaqinlashishi va bir-birini qo'llab-quvvatlashi mavjud (ular «o'rtoq kabi ish tut», «yordamdosh» deb bejiz aytilmagan).

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazining 2023 yil 22-avgustdagi «Umumta'lim fanlari bo'yicha uzluksiz ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish to'g'risidagi qo'shma qaroriga asosan umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlar bo'yicha amaliyotchi o'qituvchilar, metodistlar va yetakchi olimlar tomonidan o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining loyihasi ishlab chiqildi.

Qo'shma yig'ilishning qaroriga asosan, bitta sinfda bir paytda bir necha fanlar bo'yicha DTS va o'quv dasturlari loyihalarini tajriba- sinovdan o'tkazish belgilandi.



Unga ko‘ra, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim va Xalq ta‘limi vazirliklari, O‘rta maxsus, kasb- hunar ta‘lim markazining 2023- yil 15 avgustdagi -Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb- hunar ta‘limining umumta‘lim fanlari bo‘yicha o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan Davlat ta‘lim standartlari va o‘quv dasturlarini loyihalari tajriba - sinovdan o‘tkazish to‘g‘risida gi qo‘shma buyrug‘i qabul qilindi.

Pedagogikada muloqot ta‘lim oluvchi va o‘quvchilar jamoasining o‘zaro ta‘sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o‘zaro axborot almashishida, ta‘lim va tarbiyaviy ta‘sir o‘tkazishida, o‘zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo‘ladi hamda quyidagi xususiyatlarga ega.

Xulosa. Ushbu maqolaga xulosaga qiladigan bo‘lsam shaxslararo munosabatlarning rivojlanish dinamikasibir necha bosqichlardan o‘tadi: tanishuv do‘stona, o‘rtoqlik va do‘stona munosabatlar. Tanishuvlar jamiyatning ijtimoiy-madaniy normalariga qarab amalga oshiriladi. Do‘stona munosabatlar shaxslararo munosabatlarni yanada rivojlantirishga tayyorlikni shakllantiradi. O‘rtoqlik munosabatlari bosqichida qarashlarning yaqinlashishi va bir-birini qo‘llab-quvvatlashi mavjud (ular «o‘rtoq kabi ish tut», «yordamdosh» deb bejiz aytilmagan).

Adabiyotlar:

1. Pedagogik konfliktologiya. Ernazarova Gulnora Boboqulovna, Islamova Maftuna Sharofiddinova
2. Колесникова Г.И.Состояние образовательной системы в современном российском обществе: проблемы и решение (или «Кто виноват?» и «Что делать?») / Г.И. Колесникова А.В. Коновалова// Гуманизация образования. –2018. – №3.
3. Маркеева А.А. Проблема мотивации школьников в дистанционном обучении / А.А. Маркеева. – Текст: непосредственный // Школьная педагогика. – 2020. – № 2 (18). – С. 1-4. – URL: <https://moluch.ru/th/2/archive/164/5177/> (дата обращения: 20.03.2022).
4. Немов, Р.С. Психология / Р.С. Немов: В 3 кн. Кн. 1: Общие основы психологии. – М.: ВЛАДОС, 2010.
5. Ожегов, С.И. Толковый словарь русского языка: 80000 слов и фразеол. выражений / С.И. Ожегов; Рос. акад. наук – 4-е изд., доп. – Москва: Азбуковник, 1999.
6. Baxter P., Ashurst E., Read R., Kennedy J., Belpaeme T. Robot education peers in a situated primary school study: Personalisation promotes child learning // PLOS ONE, 2017, №. 12 (5), S.1-23.
7. Hennig, W. Lernmotive bei Schülern. Psychologische Beiträge [Text] / W. Hennig. - Heft 23. - Berlin, 1978. - S.28-31.
8. Hockly N. Teaching Online: Tools and Techniques, Options and Opportunities / N. Hockly, L. Clandfield – 2010. – 250p

РЕЗИОМЕ

Ushbu maqolada pedagogik jamoadagi shaxslararo munosabatlarning o‘rni va konfliktlar deyarli barchamizning hayotimizda uchraydi. Konfliktlar bizni doim ta‘qib qilib yuradi. Hayot konfliktlarga to‘la, insonning jamiyatda yashash tarzini ziddiyatlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shunday ekan konflikt bilan batafsil tanishishimiz kerak. Bunga yaqqol misol tariqasida ta‘lim va tarbiya ko‘p qirrali va murakkab jarayon bo‘lib o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida ham o‘zaro kelishmovchiliklar yuzaga keladi.



Kelishmovchiliklar oldi olinmasa nizoga aylanadi. Maqolada asosan pedagogik jamoadagi shaxslararo munosabatlarning o'rnini va ular tomonida ko'rib chiqilgan xulosalar va misollar keltirib o'tildi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается роль межличностных отношений в педагогическом коллективе и конфликты встречаются практически у всех нас в жизни. Конфликты всегда преследуют нас. Жизнь полна конфликтов, образ жизни человека в обществе немислим без конфликтов. Так что нам нужно подробно ознакомиться с конфликтом. В качестве яркого примера можно привести то, что обучение и воспитание-многогранный и сложный процесс, в котором возникают разногласия как между учителем, так и между учениками. Разногласия превращаются в споры, если их не предотвратить. В статье приведены в основном выводы и примеры, рассматривающие роль межличностных отношений в педагогическом коллективе и с их стороны.

SUMMARY

This article examines the role of interpersonal relationships in the teaching staff and conflicts occur in almost all of us in life. Conflicts always haunt us. Life is full of conflicts; a person's way of life in society is unthinkable without conflicts. So we need to get to know the conflict in detail. As a striking example, teaching and education are a multifaceted and complex process in which disagreements arise both between the teacher and between the students. Disagreements turn into arguments if they are not prevented. The article mainly presents conclusions and examples examining the role of interpersonal relationships in the teaching staff and on their part.